

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA BOLALARING IJTIMOIY MUHITGA MOSLASHUVI

Ergasheva Sarvinoz Ulug‘bek qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lism yo'nalishi 2 – bosqich talabasi

mail: ergashevasarvinoz72@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu tezisda maktabgacha ta'lism tashkilotlarida asosiy muammolardan biri bo'lib kelayotgan bolalarni ijtimoiy muhitga moslashtirish ularni jamiyat bilan o'za chambarchas bog'lash bilan olib borilgan tadqiqotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: innovatsiyalar, xulq-atvor, adekvat munosabatlar, ijtimoiy moslashish muammosi, komil shaxs

Innovatsiyalar pedagogik faoliyatning o'ziga xos turi hisoblanadi. Maktabgacha ta'limga qo'yilayotgan hozirgi zamonaviy talablardan kelib chiqib maktabgacha ta'lism tashkilotlarini sifatli o'zgartirishning asosiy sharti – innovatsion texnologiyalardan foydalanish hisoblanadi. Maktabgacha ta'lism tashkilotlarining tarbiyaviy ishlarida bola shaxsini shakllantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanilsa tarbiyaviy jarayonlarda yaxshi natijalarga erishish mumkin. Bola shaxsini shakllantirish, uning ijtimoiy hayotga kirishidagi muammolarga to'g'ri va izchil yondashish bolaning ijtimoiy moslashuvida muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy moslashuv bolaning tengdoshlar guruhiga (ijtimoiy guruhga) kirishi, jamiyatda mavjud bo'lgan me'yorlar, xulq-atvor qoidalarini qabul qilish, yashash sharoitlariga moslashish, bunda o'zini anglash va rolli xatti-harakatlar, o'z-o'zini boshqarish qobiliyati, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish, boshqalar bilan adekvat munosabatlar shakllanadi.

Ijtimoiy moslashuv "sotsiallashuv" tushunchasining kengroq va mazmunli shakllanishi shartidir. Ijtimoiylashtirish – bolaning ijtimoiy tajribani o'zlashtirish jarayoni va natijasidir. Ijtimoiylashuv natijasida bolaga madaniyatli, bilimli shaxsga aylanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar ijtimoiylashuvining natijasi bolaning maktabga tayyorgarligi hisoblanadi. Ijtimoiy moslashish muammosi butun o'quv yili davomida dolzarb hisoblanadi. Masalan, avgust-sentabr oylarida bolalar otaonalari va boshqa oila a'zolari bilan o'tkazgan yozgi ta'tildan keyin katta yoshdagi guruhga o'tadi yokimaktabgacha ta'lism tashkilotiga kelishadi. Yosh guruhlarda yuqori kasallanish ustunlik qiladi va shuning uchun ba'zi bolalar uchun

ko‘pincha yangi sharoitlarga moslashish qiyin - sotsializatsiya jarayoni cheksiz vaqtga cho‘ziladi.[1]

Bolalar maktabgacha ta’lim tashkilotiga borishning boshlanishi boladan yangi ijtimoiy muhitga moslashishni, kattalar va tengdoshlar bilan aloqalarni o‘rnatishni, xatti-harakatlarning moslashuvchanligini va moslashuvchan mexanizmlarini rivojlantirishni talab qiladi. Kundalik tartib, talablar va majburiyatlar bola uchun kutilmagan holga aylanadi va shu bilan birga uni stressli holatga keltiradi. Ba’zi bolalar uchun qiyin shart-bu guruh xonasining katta maydoni, jihozlari va odatdagi uy sharoitidan sezilarli darajada farq qiladi. Bunday holda, bolani xavfsizlik tuyg‘usidan mahrum qilmaslik uchun uni kattalarga yaqinroq, cheklanganroq joyga qo‘yish yaxshiroqdir.[2] Bu, shuningdek, pedagogni moslashish davrida bolalarni kattalar bilan hissiy aloqada bo‘lgan o‘ta keskin ehtiyojini qondirishga majbur qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijtimoiy moslashtirishga qaratilgan dastlabki tayyorgarlikning yetishmasligi nevrologik reaksiyalarga olib kelishi mumkin:

- Emotsional holatning buzilishi;
- Uyqu va ishtahaning yomonlashishi;
- Maktabgacha ta’lim tashkiloti qo‘rquvini rivojlanlantirish;
- Kasallikning kuchayishi;

Bolaning ijtimoiy-psixologik moslashuvi turli yo‘llar bilan sodir bo‘ladi va bevosita bolaning yoshiga, sog‘lig‘ining holatiga, yuqori asabiy faoliyat turiga, oiladagi tarbiya uslubiga va uning a’zolari o‘rtasidagi munosabatlarga, o‘yin ko‘nikmalarining rivojlanish darajasiga bog‘liq. Ko‘p jihatdan, maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy moslashuvi ota-onalarning bolani bo‘lajak o‘zgarishlarga qanday axloqiy va jismoniy tayyorlanganiga, shuningdek, bolaning individual tipologik xususiyatlariga bog‘liq xolerik va sangvinik odamlar flegmatik melanxoliklarga qaraganda tezroq moslashadi.[3] Bolalarning ijtimoiy moslashuvini yengillashtirish uchun ota-onalar farzandlariga yoshligidan tengdoshlarva kattalar bilan muloqot qilish san’atini o‘rgatishlari, to‘g‘ri kun tartibiga rioya qilishlari kerak. Bolaning eng kichik yoshidanoq uning mustaqilligini rag‘batlantirish kerak, keyin u sog‘lom va komil shaxs bo‘lib o‘sadi. Bolaning moslashgan birinchi belgilari;

- tinch uyqu;
- boshqa bolalar bilan tayyor muloqot;
- pedagogning har qanday taklifiga adekvat javob berish;
- normal hissiy holat;

Masaru Ibukaning fikricha: “Uch yoshgacha bo‘lgan bolaga ota-onalarni “majburlashi” va yod olish (tushunmasdan yodlash) mos keladi, shu bois ota-onalar bolalarni yo‘naltirishi va yaxshilikka o‘rgatishi zarur. Bu yoshda bola ko‘p narsalarni anglamay, faqatgina takrorlab bilib olishi mumkin. Bu davrda bolaning miyasi tanqidiy va tahliliy qobiliyatlarga ega emas, u huddi yozilmagan oq qog‘ozga o‘xshaydi. Ma’lumotni qabul qilish uchun uni tushunishi yoki anglashi zarur emas. Ammo bu paytda bola o‘z holiga tashlab qo‘yilsa, u ajratmasdan faqatgina yaxshi ma’lumotni emas, balki yomon ma’lumotni ham qabul qiladi va bu uning shaxsi shakllanishida asos bo‘ladi.[5] Shu bois ota-onalar doimiy ravishda o‘zlarini to‘g‘ri deb bilgan xatti-harakat usulini mustaqil ravishda nima yaxshi, nima yomonligini bilmaydigan yosh bolaning miyasiga singdirib borishlari shart. Bunga esa ota-onaning “majburlashi” ham mos keladi”

Bola jamiyatga ijtimoiy moslashishida avvalo, ota-onaning o‘rnini yuqoridir. Agar ota-onalarni yoki yaqinlar bolani kamsitsa, masxara qilsa unda yomon odatlardan shakllanishi, bolada jamoaga qo‘sila olmaslik, uyatchanlik, tortinchoqlik sifatlarini keltirib chiqarishi mumkin.[6]

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam, biz farzandimizni kelajakda qanday ko‘rishni istasak, tug‘ilganidan boshlab to‘g‘ri tarbiya qila olishimiz kerak. To‘g‘ri tarbiya qilishda kerak bo‘lsa, qattiqqo‘llik ham foyda beradi, faqat bola o‘z “meni”ni taniguncha bu usul foyda beradi. “Men” tuyg‘usi shakllangan bolaga qattiqqo‘llik qilishni zararli taraflari ko‘p. Masalan, bunday holatda bolada “Men yaxshi bola emasman” degan tasavvur paydo bo‘ladi, hamda bubir qator jiddiy salbiy sifatlar(o‘ziga bo‘lgan bahoning pastligi, ko‘p narsalardan hadiksirash, kayfiyatning beqarorligi, o‘zini aybdor deb hisoblashning yuqoriligi va shu kabilalar)ning paydo bo‘lishiga olib keladi. To‘g‘ri tarbiya qilingan bola esa jamoaga ham, jamiyatga ham tezda moslashadi.

Umuman olganda ijtimoiy moslashuv sog‘lom bola uchun ham, nogiron bola uchun ham murakkab jarayondir. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari xodimlari, oilalar va butun jamiyat har qanday bolaning jamiyatga kirib kelishi va uning to‘laqonli ishtirokchisiga aylanishi uchun barcha zarur choralarini ko‘rishi zarur. Yosh avlodning kelajagi bolalarning ijtimoiy moslashuviga qaratilgan kattalar faoliyatining maqsadga muvofiqligi va izchilligiga bog‘liq

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Амонов У. С. Научный подход А. Фитрата к пословицам // Современные тенденции развития науки и технологий. – 2016. – С. 5
2. Rakhmonovich, Adizov Bakhtiyor, and Adizova Nodira Bakhtiyorovna. "Microtoponyms formed on Different bases in Bukhara District." Middle European Scientific Bulletin 10 (2021)
3. Дустова Д. С. и др. О педагогическом мастерстве //european research. – 2020. – С. 132-134.
4. Safarov F. S. et al. Effect of a tissue biostimulator on the embryonic and post-embryonic development of lambs //Ucen. Zap. Azerbajdzan. sel'skohoz. Inst., Ser. vet. – 1969. – №. 4. – С. 69-72.
5. Saidova M. J. Methods and Importance of Using Innovative Technologies in Learning Concenter“Decimal” at Teaching Process of Math in Primary Schools //www. auris-verlag. de. – 2017.
6. Zohidova S. R. Boshlang’ich va maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini oshirish muammolari: innovatsiya, raqamli texnalogiya, xalqaro tajriba.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6567658>